



Abdullayev Bektemir Abdulla o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Magistraturasi tinglovchisi

kapitan

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SOHASIDA, DAVLAT ORGANLARINING VAKOLATLARINI VA QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida, davlat organlarining vakolatlarini va qonunchilikni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mazkur yo'naliishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jamoat xavfsizligi, salbiy omillar, terrorizm, ekstremizm, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, qonun, modda, bo'shliq, ommaviy tartibsizlik, vakolat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'naliishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.[6]

Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida huquq-tartibotni ta'minlash va ushbu yo'naliishda o'zaro maqsadli hamkorlikni tashkil etishda joylardagi davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari hamda jamoatchilik tuzilmalari ishtirokining samarasi pastligida, huquqbazarliklarning, birinchi navbatda, ijtimoiy-maishiy tusdagi jinoyatlarning



oldini olish, ularga chek qo‘yish, sodir etilganlarini fosh etishda fuqarolik pozitsiyasining sustligida namoyon bo‘layotgan qator kamchiliklar mavjud.[7]

Jamiyatda yuz berayotgan barcha voqealari, hodisa va jarayonlar o‘zaro bog’liqligini e’tirof etgan holda jamoat xavfsizligiga ta’sir qiluvchi omillarni ichki va tashqi, salbiy va ijobjiy omillarga ajratgan holda tasniflash mumkin.

Biz bevosita jamoat xavfsizligiga ta’sir qiluvchi salbiy omillarga to’xtalib o’tmoqchimiz. Jamiyat rivojlanishining bugungi bosqichida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minalashga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni quyidagi guruahlarga bo’lishimiz mumkin: ijtimoiy omillar, iqtisodiy omillar, ma’naviy-axloqiy omillar, siyosiy omillar, huquqiy omillar va tashkiliy omillar.

Jamoat xavfsizligini ta’minalashga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi siyosiy omillar sirasiga “terrorizm” va “ekstremizm” kabi salbiy illatlarni kiritishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojaror va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo‘lishni talab etmoqda”[8].

O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonunining 8-moddasida “Terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha davlat organlari” tizimi ko‘rsatilgan bo‘lib, mazkur davlat organlari qatoriga O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi kiritilgan va mazkur qonunning 9¹-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari”[2] belgilab berilgan. Lekin O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonunining 15-moddasida “Ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari”[4] tizimi ko‘rsatilgan bo‘lib, vakolatli davlat organlari qatoriga O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi kiritilmagan. Bizning fikrimizcha, “ekstremizm” (*Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonun, 3-modda: ekstremizm - ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga, hokimiyatni zo‘rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o‘zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi*)ni jamoat xavfsizligiga asosiy tahdidlardan biri



sifatida qaraydigan bo'lsak, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy subyektlardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasini Ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari qatoriga kiritish va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining ekstremizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari belgilab berilishi lozim deb hisoblaymiz.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi huquqiy omillar sirasiga "qonunchilikdagi bo'shliq va ziddiyatlar, ayrim qonunlarga hayot talablaridan kelib chiqqan holda o'z vaqtida qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmasligi, jamiyatning huquqiy madaniyati yetarli emasligi, qonunlar ijrosiga oid huquqiy mexanizm yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi yoki nomukammalligi" kabi omillarni kiritishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida:

"O'zbekistonda anomal ob-havo vaqtida ko'rildigan choralar bo'yicha normativ-me'yoriy hujjatlar yo'q. "Anomal" so'zi o'zbek tilida "g'ayritabiyy" degan ma'noni anglatadi. Bu so'z ko'proq havo haroratiga nisbatan ishlatiladi. Lekin uni boshqa tabiat hodisalari uchun ham qo'llash mumkin. O'zgidromet bu so'zdan 50-60 yildan beri foydalananadi. Anomal so'zi havo haroratining hozirgi iqlimi me'yordan 8 daraja yuqori yoki 8 daraja pastligini ko'rsatadi. Harorat past bo'lsa, anomal sovuq deyiladi va u yozda ham kuzatilishi mumkin. Yoki qishda ham anomal issiq hodisalari kuzatilgan.

O'zbekistonda xavfli meteorologik hodisalar yuz berganda ko'rildigan choralar bo'yicha aniq normativ-me'yoriy hujjatlar mavjud emas. Mamlakatda ob-havo hodisalaridagi xavf ta'sirini kamaytirish bo'yicha aniq standartlar ishlab chiqilishi zarur.

O'zbekistonda xavfli meteorologik hodisalar, ya'ni qor, bo'ron deymizmi, anomal sovuq yoki issiqmi, davomli changli bo'ronlarda ko'rildigan choralar bo'yicha aniq normativ-me'yoriy hujjatlarimiz yo'q. Aniq bir hujjat yoki tartib mavjud emas. Kim nima va qanaqa ish qilishi tizimli emas. Albatta, hujjatlar ishlab chiqilishi kerak.

Bizda nafaqat anomal sovuq, balki anomal issiq uchun ham normativ-me'yoriy hujjatlar yo'q. Yozda havo harorati 41 daraja issiq bo'lganda xodimlarga kompensatsiya to'lash, ularning ish vaqtini boshqa vaqtлага ko'chirish masalalarini doimiy ko'taramiz. Bu bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi kerak. Har bir tarmoqning o'z institutlari bor.



Ular ob-havo hodisalaridagi xavf ta'sirini kamaytirish bo'yicha aniq standartlar ishlab chiqishi lozim. Buni hukumat qarorlari sifatida tasdiqlash kerak" — O'zgidromet mutaxassisasi, iqlimshunos Erkin Abdulahatov[10].

Bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, hozirgi vaqtida O'zbekistonda yuz berayotgan xavfli meteorologik hodisalar, ya'ni anomal sovuq, anomal issiq, davomli changli bo'ronlarda ko'rildigan choralar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "O'zbekistonda anomal ob-havo vaqtida ko'rildigan choralar to'g'risida"gi Qonuni loyihasini ishlab chiqish, qabul qilish va amaliyatga joriy qilish lozim deb hisoblaymiz. Bu qonun nafaqat jamoat xavfsizligini mukammal taminlash balki xalqimizning salomatligini saqlash, adolatli mehnat sharoitlarini yanada mukammallashtirilishiga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Jamoat xavfsizligiga asosiy tahdidlardan biri sifatida ommaviy tartibsizliklarni aytishimiz mumkin, va bunga yaqqol misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Uzoqqa bormaylik yaqin o'tmishimizda, ya'ni yon qo'shnimiz Qozog'iston Respublikasida 2022-yil yanvar oyi boshlarida suyultirilgan gaz narxi oshishi ortidan norozilik namoyishlari tartibsizliklar va talon-tarajiliklarga aylanib ketgan edi. Qozog'istonda yuz bergan tartibsizliklar davomida 4,5 mingdan ziyod kishi jabrlangan, o'likxona(morg)larga 225 kishining jasadi olib kelingan. Qozog'iston hukumati butun mamlakat bo'ylab favqulorra holat e'lon qilgan edi.

Bundan tashqari yaqinda yani 2022 yil 1-2 iyul kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrida boshlangan namoyishlar tartibsizliklarga aylanib ketganligini aytishimiz mumkin. Mazkur tartibsizliklar nafaqat Qoraqalpog'iston Respublikasi balki O'zbekiston Respublikasi hayotida ham o'zidan chuqur, o'chmas salbiy iz qoldirdi va bu voqealar mamlakatimizga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy hamda manaviy jihatdan ulkan zarar yetkazdi. Bu esa o'z navbatida jamoat xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash hamda ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurashishda barcha davlat hokimiyati organlari va butun jamoatchilik birdek mas'ul ekanligini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi Konsepsiyasida "jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo'yish bo'yicha tadbirlar yuzasidan



umumiy boshqaruv tizimini ta'minlash” O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi zimmasiga, “jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo‘yish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish”[6] O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi zimmasiga yuklatilgan. Lekin O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonunida mazkur davlat organlarning asosiy vazifalari qatoriga “jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo‘yish” vazifasi kiritilmagan. Mazkur davlat organlari respublikada jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog‘liq holatlar (*ommaviy tartibsizliklar*) yuzaga kelgan taqdirda asosiy kuch ishlatar tuzilmalardan hisoblanishadi. Bundan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni va “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonunida mazkur davlat organlarning asosiy vazifalari qatoriga “jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo‘yish” vazifasi kiritilishi va mustahkamlanishi lozim deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi”[6] deya belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda, keng jamoatchilik orasida va jamoat joylarida Milliy gvardiya bo‘linmalarining o‘rni va ro‘lini yanada oshirish maqsadida, jamoat joylarida sodir etiladigan, jamoat tartibiga va xavfsizligiga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar, yani, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining XV bobidagi (*jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun ma’muriy javobgarlik*) ayrim moddalarni O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga tegishliligi bo‘yicha yuklatilishi (*O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarining mansabdar shaxslari quyida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbazarliklarni aniqlagan taqdirda, ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risida bayonnomaga tuzish (rasmiylashtirish) huquqi berilishi*) lozim deb hisoblaymiz. Bunga misol



tariqasida, “183-modda. Mayda bezorilik, 184¹-modda. Fuqarolarning jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishi, 185²-modda. Sovuq qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ashyolarni olib yurish, 187-modda. Jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste’mol qilish, 188³-modda. Tilanchilik qilish, 192-modda. Maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzish”[1] kabi normalarni aytishimiz mumkin.

Xulosa o’rnida shuni takidlash lozimki, yuqorida keltirilgan qonunchiligidan kiritilishi lozim bo‘lgan o‘zgartirish va qo‘sishimchalar, jamoat xavfsizligi sohasida kelgusida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarning oldini olishga, jamoat xavfsizligini ta’minalash sohasida, davlat organlarining vakolatlari va qonunchiligidan takomillashishiga xizmat qiladi va sohaga oid davlat siyosatida tub burilish yasaydi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi; 1994 yil 22 sentabr. lex.uz/uz/pdfs.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabr kunidagi “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi 167-II-sonli Qonuni. lex.uz/uz/pdfs.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabr kunidagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-sonli Qonuni. lex.uz/uz/pdfs.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 30 iyul kunidagi “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘RQ-489-sonli Qonuni. lex.uz/uz/pdfs.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-sonli Qonuni. lex.uz/uz/pdfs.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-27-son. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2021 yil 29 noyabr. lex.uz/uz/pdfs/5749291.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minalash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4075-son Qarori. 2018 yil 24 dekabr. lex.uz/uz/pdfs.



8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. / Xalq so'zi., 2017 yil., 15 dekabr.

9. <https://www.lex.uz>.

10. <https://www.daryo.uz>.

